

## Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, Buxoro viloyatida jami 13 798,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,2% ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>13 798,1</b>	<b>111,2</b>
Buxoro sh.	2 657,1	125,2
Kogon sh.	491,0	101,8
Olot tumani	435,3	106,2
Buxoro tumani	579,8	115,4
Vobkent tumani	345,7	109,9
G'ijduvon tumani	720,3	115,8
Kogon tumani	770,1	103,6
Qorako'l tumani	441,6	68,4
Qorovulbozor tumani	442,1	102,9
Peshku tumani	610,3	109,9
Romitan tumani	1 013,8	119,3
Jondor tumani	551,0	125,7
Shofirkon tumani	714,1	111,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,8 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 24,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 119,2 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,5 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 118,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	636,6	811,8	353,2
o'sish sur'ati, %	95,2	134,8	121,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 117,9	2 594,0	684,8
o'sish sur'ati, %	111,6	115,0	117,8
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	5 599,8	-	-
o'sish sur'ati, %	107,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-sentabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 801,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,4 % ga ko'payib, 13,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,6 % ni tashkil etgan holda 6 396,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 40,6 % ni yoki 5 599,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 801,6</b>	<b>6 396,7</b>	<b>5 599,8</b>	<b>115,3</b>	<b>113,6</b>	<b>107,4</b>
Buxoro sh.	539,4	1 745,0	372,7	143,5	124,6	108,0
Kogon sh.	87,6	347,4	56,0	120,9	97,4	105,2
Olot tumani	30,7	191,0	213,6	31,6	170,2	106,6
Buxoro tumani	21,8	338,1	219,9	117,5	122,4	106,0
Vobkent tumani	16,5	199,6	129,6	2,3 m.	108,3	105,2
G'ijduvon tumani	67,5	293,4	359,4	3,6 m.	111,5	105,6
Kogon tumani	38,3	547,2	184,6	76,1	104,6	108,7
Qorako'l tumani	92,8	165,6	183,2	27,5	117,8	109,7
Qorovulbozor tumani	310,5	105,7	25,9	134,4	60,3	111,4
Peshku tumani	22,0	380,4	207,9	2,1 m.	104,7	114,6
Romitan tumani	239,3	542,2	232,3	142,2	117,7	105,2
Jondor tumani	75,4	279,3	196,3	16,3 m.	111,1	107,7
Shofirkon tumani	38,0	548,6	127,5	3,2 m.	108,4	105,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jondor tumanida (16,3 m.), G'ijduvon tumanida (3,6 m.) va Shofirkon tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 3,2 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 170,2%), Buxoro shahrida (124,6) va Buxoro tumanida (122,4%) kuzatildi.

#### **IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;  
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

Sh. Xodjaev  
65 223-81-99 (8020)

**Manzil:**

200100, Buxoro sh.,  
S.Ayniy ko'chasi, 3-uy

---